

Rossiya Federatsiyasi shaharlariga parvozlar jadvali va yo'nalishini o'zgarishi

2022 2 Mart

Rossiya Federatsiyasi tomonidan havo hududining bir qismi yopilishi bilan bog'liq cheklovchi chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi yo'lovchilariga qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, joriy yilning 3-martidan 26-martigacha O'zbekiston – Sochi – O'zbekiston yo'nalishi bo'yicha qo'shimcha qatnovlar joriy etilgani haqida ma'lum qilamiz!

Qo'shimcha reyslar kiritilganidan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha havo qatnovi to'xtatilgan:

HY3687/3688 va HY9687/9688 Toshkent – Krasnodar – Toshkent yo'nalishi bo'yicha;

HY9647/9648 Toshkent – Rostov-na-Donu – Toshkent yo'nalishi bo'yicha;

HY9825/9826 Namangan – Krasnodar – Namangan yo'nalishi bo'yicha parvozlar

□ Sochi shahriga amalga oshiriladi □

Yo'lovchilar aeroportlarga belgilangan vaqtdan oldinroq kelishlari kerak. Shuningdek, Krasnodar va Rostov-na-Donu shaharlariga/shaharlaridan avval bekor bo'lgan parvozlar yo'lovchilari aviachiptalarining to'liq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olishlari yoki 2022-yil 3-martdan boshlab har qanday bo'sh sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.